

MOLIYAVIY INQIROZLAR: TARIXIY KELIB CHIQISHI

Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li

Jizzax politexnika instituti Servis fakulteti Iqtisodiyot va menejment kafedrasida assistenti

Norboyev Doston

Jizzax politexnika instituti, Servis fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi jahon moliyaviy inqirozlar, tarixiy kelib chiqishi, O'zbekistonga ta'siri, uning sabablari va qanday chora tadbirlar bilan ularga barham topganligi haqida ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: «lola» inqirozi, London fond birjasi, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, 1720 yilgi inqiroz.

2008 yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga baho berar ekan, ko'pgina xalqaro ekspert va mutaxassislar bu inqirozning sabablari va yanada avj olishi bilan bog'liq prognozlarida javoblardan ko'ra ko'proq savollarga duch kelishmoqda. E'tiboringizga havola etilayotgan "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" deb nomlangan ushbu asarning dolzarbligi ham aynan ana shu holatlar bilan izohlanadi. Kitob quyidagi ikki qismdan iborat: birinchisi — jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar; ikkinchisi — bank tizimini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish — O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir. I. Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar Bugungi kunning eng dolzarb muammosi — bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat. Avvalo, jahon moliyaviy inqirozi haqida. Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Gollandiyadagi 1634-1637 yilgi inqiroz

Uni «lola» inqirozi deb atasa to'g'riroq bo'ladi. Mamlakatdagi moliyaviy inqirozning boshlanishiga lola piyoziga bo'lgan o'ta ortiqcha e'tibor sababchi. Lolani asosan zodagonlar sotib olishlari uning qimmatlashishiga sabab bo'lgan. Ayrimlar «Lola piyozi borgan sari qimmatlashadi hamda uni sotib katta daromad topaman», degan fikrda hattoki mol-mulklarini ham garovga qo'yib, lola piyozi sotib olishgan. Oxir-oqibat, hamma lola yetishtirish bilan shug'ullana boshlagach, bozorda sotib oluvchi qolmagan. Natijada lola piyozining narxi oddiy piyozniki bilan bir xil bo'lib tushib qolgach, butun e'tiborini lola yetishtirishga qaratgan mamlakat uchun og'ir kunlar boshlangan. Iqtisodiyotning boshqa sohalariga e'tibor qaratmagan Gollandiyaning tashqi bozorini uch yil ichida Angliya egallab olgan.

Fransiyadagi 1720 yilgi inqiroz

Bu inqirozga Fransiya moliya nazoratchisi Jon Loning qarori sabab bo'lgan. Fransiyaning ulkan qarzdorligini bartaraf qilish maqsadida u qimmatli qog'ozlarni bekor qilib, inflyatsiyani yo'q qilgan. Ammo Loning bu urinishida kamchiliklar ham bo'lganligi bois mamlakat moliyaviy tanazzulga uchragan.

1825 yilgi xalqaro inqiroz

Buyuk britaniyalik investorlar Lotin Amerikasida oltin qazish ishlariga kattagina mablag' kiritishgan va qazib olingan qimmatbaho metallarni London fond birjasida sotishgan. Katta foyda

olish uchun ayrim qing'irliklar yuz berib, Buyuk Britaniya bank tizimida moliyaviy inqiroz boshlangan va bu Lotin Amerikasiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Yevropadagi 1847 yilgi inqiroz

O'sha davrdagi texnologik taraqqiyot temir yo'l kompaniyalarining shiddat bilan rivojlanishiga olib kelgan. Investitsiyaga bo'lgan talab va olinadigan daromadning kattaligi turli qing'irliklarni keltirib chiqargan. Oqibatda Angliya, Gollandiya va Germaniyada moliyaviy inqiroz boshlangan.

1914 yilgi xalqaro inqiroz

Birinchi jahon urushi, siyosiy va iqtisodiy vaziyat oqibatida urushayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti harbiy yo'nalishga qaratilganligi jahon moliyaviy inqiroziga olib kelgan.

Germaniyadagi 1920-1922 yilgi inqiroz

Birinchi jahon urushidan keyingi og'ir vaziyat Germaniya aholisining yoppasiga qashshoqlashishiga va giperinflyatsiyaga olib kelgan. O'sha paytlarda ish haqini kuniga ikki marta berishgan, chunki kechga borib pul qadrsizlanishi odatiy holga aylanib qolgandi. Inqiroz ta'siri Buyuk Britaniya, Gollandiya, AQSh, Norvegiya, Italiya, Daniyaga ham yetib borgan.

AQShdagi 1929-1933 yilgi buyuk inqiroz

Fond bozorining sinishi va Amerika kompaniyalari aktsiyalari narxining jadal ravishda tushib borishi AQShni inqiroz yoqasiga olib kelgan. Ishlab chiqarishning qisqarishi oqibatida amerikaliklar nafaqat ish joylaridan, balki kun kechirish imkoniyatidan ham mahrum bo'lishgan.

1973 yilgi moliyaviy inqiroz

«Energetik inqiroz» neft narxining oshib ketishiga olib kelgan. Bir yil davomida bir barrel neftning bahosi 3 dollardan 12 dollarga ko'tarilgan.

1997-1998 yilgi moliyaviy inqiroz

Xorij investorlarining ketishlari oqibatida Janubi-Sharqiy Osiyoda inqiroz boshlangan. Inqiroz asosan Janubiy Koreya va Rossiyaga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Rossiyaning asosiy valyuta manbai - neft narxining tushishi oqibatida mamlakat valyutasining qadri tushib ketgan.

Bugungi inqiroz

AQShda 2007 yilda boshlangan inqiroz pulni qaytarishga layoqati bo'lmaganlarga ham kredit berilaverishi oqibatida paydo bo'ldi. Ipoteka inqirozi 2006 yilning oxirida, uy-joy uchun olingan kredit mablag'larining ommaviy ravishda qaytarilmaganligi sababli boshlandi va tez orada avvaliga Amerika moliyaviy sektoriga, keyin esa boshqa mamlakatlarga yoyildi. Aksariyat kompaniyalar bankrot bo'ldi yoki jiddiy zarar ko'rdi, bu esa kreditlash hajmining keskin qisqarishiga va Amerika iqtisodiyotining inqirozga uchrashiga zamin tayyorladi. Moliyaviy inqiroz ta'sirida AQShda ko'chmas mulk narxi ko'tarilmadi, yangi uy qurish sur'ati esa keskin pasayib ketdi. Moliyaviy va qurilish sektorlari bilan bog'liq Amerika fond bozori 2007 yilning ikkinchi yarmi davomida pastga «sho'ng'ib» bordi.

XXI asrning dastlabki yillarida ipoteka kompaniyalari foiz stavkalarini tushirish va yana boshqa yo'llar bilan mijozlarni jalb etish uchun harakat qila boshladilar. Hattoki kam daromadli oilalarga ham uy-joy kreditlarini berish boshlandi. Asr boshida bunday kreditlar ipoteka bozorining 12 foizini qamrab olgan bo'lsa, 2007 yilda 23 foizga yetdi. Ammo kredit oluvchilar orasida olingan pulni qaytarmaydiganlar ham ko'p edi. 2007 yilgacha AQShda ko'chmas mulk narxi doimiy ravishda oshib bordi va bu ipoteka kreditlari bozorini mustahkam ushlab turdi. Amerikaliklar orasida shunday investitsion uslub tarqalgandi - ipoteka krediti evaziga uy sotib olish va vaqt o'tgach, uni qimmatroq narxda sotish. Bunday savdodan yaxshigina foyda olayotgan kredit-ipoteka tashkilotlari bor imkoniyatlarini ishga solib, kredit oluvchilar sonini oshirishga kirishdilar. Ular hattoki kredit oluvchining qarzni to'lay olish layoqatiga ham e'tibor bermay qo'yidilar. Ayrim hollarda kredit miqdori sotib olinayotgan uy narxidan ham ko'proqni tashkil qilardi. 2004 yil boshida Amerika ipoteka kreditlari foizi bilan bog'liq Londondagi banklararo kreditlash foizi ko'tarilib ketdi. Katta foiz to'lash oqibatida bunday uslubdan voz kechishga kirishildi. Amerika ko'chmas mulk bozoridagi ko'tarilish to'xtay boshladi va uy-joy narxi tushib ketdi. Qarzdorlar qarzlarni qaytarish uchun uylarini sotishga majbur bo'ldilar. Ommaviy ravishda uy-joylarning

sotilishi esa ko'chmas mulk narxini tushirib yubordi va ko'chmas mulk bozoridagi aksiyalar narxi keskin tusha boshladi.

Inqirozning dastlabki qurboni Amerikadagi yirik ipoteka kompaniyalaridan biri hisoblangan New Century Financial Corp. bo'ldi. 2006 yilning martida uning qarzlari shu darajaga yetdiki, kompaniya kredit berishni to'xtatdi va aksiyalarini fond birjasidan olishga majbur bo'ldi. Ipoteka obligatsiyalariga ega bo'lgan boshqa kompaniyalar ham shu tarzda inqirozga uchray boshladi.

Ipoteka inqirozining asosiy ishtirokchilari sifatida Federal milliy ipoteka assotsiatsiyasi (Fannie Mae) va Federal uy-joy ipoteka krediti korporatsiyalarini (Federal Home Loan Mortgage Corporation) aytib o'tish mumkin. Bundan yetmish yil ilgari AQSh Kongressi tomonidan tashkil etilgan bu kompaniyalar aksiyadorlik kompaniyalari bo'lib, hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ularning vazifasi kreditorlardan ipoteka kreditlarini sotib olish va shu yo'l bilan yangi kreditlar berishga imkoniyat yaratishdir. Ammo bu kompaniyalar kafolatsiz kreditlarni sotib olmadilar va kreditorlar aksiyalarini boshqa investorlarga (asosan G'arbiy Yevropa va Sharqiy Osiyo) sotishga majbur bo'ldilar. Bu esa inqirozning dunyoviy miqyosda avj olishiga olib keldi.

2008 yilning bahoriga kelib AQShdagi moliyaviy kompaniyalar katta zarar ko'rganliklarini e'tirof etishdi. Ikki yil ilgari boshlangan ipoteka inqirozi Amerikaning «Katta beshlik» deb ataluvchi banklar guruhiga kiruvchi Bear Stearns bankini birinchi bo'lib «sindirdi». Goldman Sachs, Lehman Brothers, Merrill Lynch va Morgan Stanley banklari esa uchlikka aylandi - Lehman Brothers bankrot deb e'lon qilindi, Merrill Lynchni esa Bank of America banki ikki baravar arzoniga - 50 milliard dollarga sotib oldi. Bundan tashqari, American International Group sug'urta kompaniyasi esa moliyaviy qiyinchiliklardan qutulish uchun 85 milliard dollar yordam puli olishga majbur bo'ldi.

Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/jahon-moliyaviy-inqirozi-tarihidan>
2. Mirzaqul o'g, B. O. R. (2023). HUDUDLARDA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHNI RAG'BATANTIRISH USULLARI.
3. Baytanov, O. (2023). O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT SANOATI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 446-449.
4. Baytanov, O. R. (2017). Ўзбекистонда солиқ тизимини такомиллаштириш орқали оилавий тадбиркорликни янада ривожлантириш. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 6, 62-68.